

Volume 1, Issue 5, October 2023

**YUKSAK MA'NAVIYAT KUCH SOHIBI VATANPARVAR INSON
Sativaldiyev Pulatjan Adilovich**

Navoiy Davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Barcha davrlarda shundan kelib chiqib ayniqla bugungi davrda butun dunyo mamlakatlari uchun qolaversa mamlakatimiz uchun yoshlarimizni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga bo'lgan talab va ixtiyoj kun kunsayin ortib bormoqa. Inson tanasini kelishganligi va baquvvatligi badan tarbiyasi va moddiy ixtiyotlari bilan bo'lsa bo'lsa, inson uchun eng muhim oziqadan biri ma'naviy oziqadir, bu oziqa orqali inson qalbi ravshanlashadi va qalbdan nurlarning tarqalishi vujudga keladi. Quyoshning tong sahardan baland adirlikdan va osmon o'par harsang toshlar ortidan taraloyotgan nurlari yer zamida mavjud bo'lган barcha tirik mavjudodlarga o'zining iliqlik nurini sochadi. Shundan kelib chiqib inson qalbidan taralayotgan ma'naviyat nurlar beqiyos kuch bag'ishlaydi, aynan manashu kuch hich bir tarozi pallasi bilan o'lchab bo'lmaydigan vatanparvarlik tuyg'usidir.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, mamlakat, tarix, inson, ajdodlar, vatanparvarlik, donishmand, ta'lim-tarbiya.

Bizni havas qilsa arziydegan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydegan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydegan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydegan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham, albatta, bo'ladi.

Sh. M. Mirziyoyev

Prezidentimiz o'z so'zlarida keltirgan tariflarida vatanparvarlik tuyg'ulari jamiyat hayotining ustuvor jarasi ekanligini ko'ramiz. Islom olamida o'zidan uchmas iz qoldirgan ilohiyatshunos olim Abu Hamid G'azzoliy aytadiki tushakda yotgan bemor uch kun taom yimasa tana harakatdan to'xtaydi, shu singari inson qalbiga uch kun ilm kirmasa qalb o'ladi, o'lgan qalbdan ezdulik nurlari tarqalmaydi, ezgulik narları tarqalmagan qalbda esa insonda yuzaga keladigan vatanparvarlik tuyg'ulari bo'lmaydi. Buyuk donishmand Abu Nasr Farobiyning fozil odamlar shahri asarda inson qanday qilib vatanparvarlik tuyg'ularini yuzaga kelishi mumkinligini ko'rsatib bergen.

Farobiyning uqdirishicha, inson ijtimoiy mavjudotdir. Tabiiy ravishda boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatga kirishga intiladi, natijada ijtimoiy faoliyat vujudga keladi. Jamiyat odamlarni birlashtirishi va ularga baxt-saodat bag'ishlashi kerak. "Fozil odamlar shahri" nomli asarida davlat boshlig'inining

fazilatlari belgilab beriladi. Davlatni boshqaruvchi kishi sog'lom, jasur, aqilli va ma'rifatparvar, adolatparvar bo'lishi, kishilar bilan muomila qilish, san'atini chuqur bilishi va unga amal qilishi zarur.

Farobiy qarashlarining asosiy tamoyili bu adolatparvarlikdir. Ideal shaharda ham adolat hamma narsadan ustun turadi. Hammaning tengligi, hamkorligi va axilligi mana shu davlatni asosiy tayanchi va kelajak ravnaqidir degan g'oyalarni ilgari suradi. Farobiy ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlarida insonparvarlik g'oyalari alohida o'rinn tutadi. Uning o'qtirishicha, insonni baxt-saodatga elituvchi jamoa yetuk jamoa bo'laolishi mumkin. Komil insonni yaratish, uni baxt-saodatga elitish harqanday davlat jamoa boshlig'ining vazifasi bo'lishi darkor degan talimotni ilgari surgan. Abu Nasr Farobiyning o'z davrida ilgari surgan ilmiy qarashlari bugungi davr muammolarini hal qilishga qaratilgan asosiy manbalar xazinasidan joy olgan. Abu Nasr Farobiyning Fozil odamlar shahri asaridan kelib chiqib yondashadigan bo'lsak muhtaram yurt boshimiz Sh. M. Mirziyoyev xalq manfaatlaridan kelib chiqib odilonalik va adolatlilik tamoyillariga asoslanib islohatlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda davlatimiz rahbari kelajak yosh avlodni yaxshi unub o'sib ulg'ayishi uchun barcha imkoniyat eshiklarini ochib bermoqda. Davlatimizda olib borilayotgan islohatlarning asosiy diqqat e'tibori bu aynan yoshlarga qaratilayotganini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Abu Nasr Forobiydan zamonasining podsholaridan biri, siz kuchli olimsiz qani menga davlatimni kelajagi haqida aytib bersangiz dib so'raganda, men sizni qo'l ostingizdag'i yoshlar bilan suhbatlashishim kerak, undan sung sizning davlatiningiz kelalajagi haqida o'zimning fikr-mulohazalarimni aytib bera olaman degan ekan. Yoshlar ijtimoiy hayotning niholi. Yerga qadalgan yosh niholning qanday qilib ulg'ayishi va hosil berishi uga qarayotgan bog'bonning mehnatida ko'rinsa, o'sib ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning bog'boni uning ota-onasi, mahallasi va davlatdir. Muhtaram yurt boshimiz tomonidan yoshlarni qo'llab quvvatlash uchun jamiyatning turli sohalarida imkoniyat eshiklari keng ochib berilmoqda. Bugungi murakkablashib ketayotgan bir davrda hattoki fuqarolar o'zi yashab kelayotgan joyi yani to'g'ilgan makonini tashlab ketish holatlari ko'zatilmoqda manashunday holatlardan xulosa chiqarish harbir insonning o'ziga halo. Ongi va tafakkuri yetarli darajada rivojlanib ulgurmagan jamiyatimizning tarkibiy qismi bo'lgan ayrim yoshlarimiz, to'g'ri va ravon bo'lgan tinch va osuda manzilga olib boradigan yo'ldan chetlashayotgan xolatlarni guvoxi bo'lyapmiz. Bunday muammoli holatlarni oldini olishga qaratilgan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan harbiy vatanparvarlik tadbirdari

o'zining ijobiliy samarasini berib kelmoqda. Bu tadbirlarni atroflicha yoritib beradigan bo'lsak, Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari tomonidan harbiy vatanparvarlikni yoshlar ongi va qalbiga singdirish maqsadida maktabgacha ta'lif muassasalari tarbiyalanuvchilari, umumiy o'rta ta'lif maktabi o'quvchilari, o'rta maxsus ta'lifi talabalari, uyishmagan yoshlar va oliy talim dargohlarida tahsil olayotgan talaba yoshlar bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar keng miqyosda o'tkazib borilmoqda. Ayniqsa Davlatimiz tomonidan bugungi kunda uyushmagan yoshlarni uyushtirish va ularda sog'lom ma'naviy axloqiy muhidni yuzaga keltirish maqsadida joylardagi harbiy qismlarda armiya hayot maktabi shiori ostida ikki xafjalik o'quv kurslari tashkil qilinib kelinmoqda. Ezgu maqsadlar yo'lida qilingan harakatlar samarasiz ketmaganidek, ikki xafjalik harbiy qismdag'i o'quv ko'rslaridan tahsil olgan uyushmagan yoshlarning yaxshi tasurotlar bilan aytishi kishini quvontiradi. Jamiatda har bir narsani o'lchov birligi bor masalan og'irlikniki kilogram, masofaniki metr, jinoyatniki qonun bo'lsa vatanparvarlik tuyg'usining o'lchov birligi bu inson qalbi, iymoni va vijdonidir, bular orqali faqat inson his qilish va anglash mumkin.

Davlatning rivojlanishi va yuksalishi istiqomat qilayotgan halqlarning o'zining kasb hunariga astoyidil sitqi dil bilan yondashishi bilan bog'liqidir. Talim va tarbiyaning uyg'unligi yuksak vatanparvarlikni shakillanishiga yordam beradi, buning boisi ta'lin nazariy yondashuv bo'lsa amalyot uning davomchisidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "ta'lif-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori.2020 y.
2. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q Bez kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.T.: O'zbekiston 1999 y.
3. J. YA. Yaxshilikov, N. E. Muhammadiyev falsafa Samarqand-2021 y.
4. Rustambek Shamsutdinov, Husanboy Mo'minov O'zbekiston tarixi O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti davlat korxonasi Toshkent-2020 y.